Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ta’lim berishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish

Fuzuliyeva Adiba O’ktam qizi

Jizzat davlat pepagogika universiteti, Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tariyalanuvchilariga ta’lim tarbiya berishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, multimediya texnologiyalari, maktabgacha ta’limning bundan 10 yil oldingi holati haqida hisoblanadi.

Kalit so’zlar: Uzluksiz ta’lim, multimedia, axborot texnologiyalari, ta’lim tizimi, qayta ishlovchi vositalar, bilim, malaka, ko’nikma.

Annotation: This article discusses the use of modern information technology in educating the scholaris of preschool educational organizations, multimedia technologies, and the state of preschool education 10 years ago.

Key words: Continuous education, multimedia, information technology, education system, recycling tools, knowledge, skills, skills.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование современных информационных технологий в воспитании ученых дошкольных образовательных организаций, мультимедийных технологий, состояние дошкольного образования 10-летней давности.

Ключевые слова: Непрерывное образование, мультимедиа, информационные технологии, система образования, инструменты утилизации, знания, навыки, навыки.

Uzluksiz ta’lim ta’lim tizimi quyidagi turlarni o’z ichiga oladi:

- Maktabgacha ta’lim;
- Umumiy o’rta ta’lim;
- O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- Oliy ta’lim;
- Oliy o’quv yurtidan keying ta’lim;
- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- Maktabdan tashqari talim.

Maktabgacha ta’lim. Uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo’g’ini hisoblanadi. Ushbu soha har tomonlama soglom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlash vazifasini bajaradi. Ammo bundan taxminan 10 yilcha oldin bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmay qolgan edi. Buning natijasida esa, ota-onalar farzandlarini maktabgacha ta’lim tashkilotiga ta’lim olish uchun emas, balki ulardan vaqtinchalik “qutulish” maqsadida olib borishadigan holatlar yuzaga keldi. Xolbuki, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash, ularga sifatli ta’lim berish nafaqat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining vazifasi, balki bu ota-onalarning ham muhim vazifalaridan biridir. Ota-onalarning bunday loqaydsizligi maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlariga ham salbiy ta’sirini ko’rsatadi.

Bunday salbiy ta’sirlar va omillar bolalarning ta’lim olishlari, tarbiyalanishlarida kata to’siqlarni yuzaga keltirdi. Ammo yurtboshimiz bularga chek qo’yish maqsadida turli qarorlar ishlab chiqdi. Xususan, “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi, “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi farmon va qarorlar ishlab chiqdi. Tez fursatda qaror va farmonlar juda yuqori natijalar berdi. Maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalar qamrovi 10% ga oshirildi. Bu qaror va farmoyishlarga muvofiq maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga sifatli ta’lim-tarbiya berish, ularni sog’lom, har tomonlama yetuk va barkamol shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biriga aylandi. Ularga ta’lim-tarbiya berishda tarbiyachilarning o’rni beqiyosdir. Bolalarga sifatli ta’lim berish tarbiyachi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ta’lim-tarbiya berish jarayonida ilg’or pedagogic va axborot texnologiyalaridan foydalanish, tashkilotlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollangan tarbiyachilar bilan to’ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish muhim vazifalardan biridir. Tarbiyalanuvchilarga zamonaviy usullardan foydalangan holda ta’lim berish tarbiyachining bilim darajasi va kreativligiga bog’liq. Bola juda qiziqqon va tirishqoq bo’ladi. Bola bir xillikni yoqtirmaydi. Tarbiyachi mashg’ulot o’tish jarayonida har xil metodlar va uslublardan foydalanishi mashg’ulotning qiziqarlilik darajasini oshiradi. Bu esa, bolalarning bilim olishlarining yaxshilanishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ta’lim berishning zamonaviy usullariga zamonaviy axborot texnologiyalarini keltirsak maqsadga muvofiq bo’ladi. Sababi, hozirgi zamon axborot texnologiyalari asri hisoblanadi. Yoshlarga zamon talabiga moslashgan holatda ta’lim-tarbiya berish dolzarb vazifa hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilariga ta’lim-tarbiya berishda qanday zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mumkin?

Bugungi kunda ta’lim tizimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Kundalik hayotimizda turli ko’rinishdagi axborotlar masalan, matnli, grafikli, jadvalli, ovozli,(audio), rasmli, tasvirli(video) va boshqa axborotlar bilan ishlashga to’g’ri keladi. Hozirgi kunda media-texnologiyalarining o’rni tobora kengayib bormoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimedia texnologiyalaridan foydalanish juda kata samara bermoqda. Multimedia atamasining lug’vaiy ma’nosi (multim-mediur yoki multi-media) ikkita so’z yig’indisidan tashkil topgan bo’lib, muiti-ko’p, media-muhit ma’nosini anglatadi. Atama ilmiy va o’quv adabiyotlarida «ko’p vositalilik», «multimediya muhiti» «ko’p qatlamli muhit», «ma’lumot tashuvchi vosita» kabi talqin qilinib kelinmoqda. **«Multimedia – deganda turli shakldagi ma’lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi».**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi uchun mo’ljallangan kompyuterli o’yin dasturlarining barchasi ham ta’lim jarayonida o’z samarasini beravermaydi. Shuning uchun ham kompyuter o’yinlarini tanlash va ulardan foydalanish uchun jiddiy yondashuv va e’tibor kerak bo’ladi. Kompyuterli o’yin dasturlari shunday yaratilgan bo’lishi kerakki, unda bajariladigan har bir harakat bolalar tomonidan to’g’ri qabul qilinishi, bajarilishi va tasavvur etilishi lozim. O’yin dasturidagi har bir harakatni bola tushuna olishi, uni qanday bajarish kerakligini o’ylash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’lishi lozim.

MTTlarida multimediali kompyuterli ta’limni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri – bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish va ularni kompyuterda mustaqil ishlashini ta’minlashdan iborat. Shuning uchun, tarbiyachi (pedagog) ushbu muammoga alohida e’tibor qaratishi lozim.

Kompyuterning tuzilishi va undan foydalanish ko`pgina adabiyotlarda bayon etilgan. MTTlari tarbiyalanuvchilariga kompyuterning tuzilishini va undan foydalanishni juda sodda shaklda bayon etish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida elementar kompyuter savodxonlikni shakllantirish dolzarb vazifadir. Uning dolzarbligi: birinchidan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash, kompyuterlashtirish, tarbiyalanuvchilarga kompyuter savodxonlikni shakllantirish vazifasini qo`yilganligi; ikkinchidan, hozirgi kunda jamiyatni shu jumladan, barcha maktabgacha ta’lim muassasalarini kompyuter texnikasi bilan ta’minlanishi; uchinchidan, multimedia texnologiyasining asosiy vositasisiz maktabgacha ta‘lim muassasalarida ushbu vazifani amalga oshirib bo`lmasligi bilan belgilanadi.

Ma’lumki, MTTlarining tarbiyalanuvchilarida elementar kompyuter savodxonlikni shakllantirish deganda, yuqoridagilardan tashqari, ularning amaliy faoliyati va kompyuterda ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda amaliy malakalarini shakllantirish ko`zda tutilgan. Tabiiyki, ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda tarbiyalanuvchilar birdaniga klaviaturadan yoki “Sichqoncha”dan foydalana olmaydilar. Buning uchun, ular dastlab o`z malakalarini oshirishlari kerak. Tarbiyalanuvchilarning malaka oshirishlari quyidagicha amalga oshiriladi:

MTT sharoitida klaviaturaning kattalashtirilgan modeli va “Sichqoncha”ning o`ziga o`xshash modeli tayyorlanadi. Tarbiyachi dastavval tarbiyalanuvchilarni klaviatura modelida mashq qildiradi. Jumladan, ularni harflarni va kompyuterni boshqarishga tegishli tugmachalarni birin-ketin barmoqlari bilan bostirib chiqadi va tushuntirib boradi. So`ngra tarbiyalanuvchilar “Sichqoncha” modeli bilan mashq qiladilar.

Bunda “Sichqoncha” modeliga ulangan ko`rsatgichlar kompyuter ekraniga o`xshash va vertikal joylashtirilgan taxtaning tarbiyachi belgilab bergan nuqtasiga olib boradi. Shundan keyin, tarbiyalanuvchilar tarbiyachi yoki pedagog nazorati ostida haqiqiy klaviaturada va “Sichqoncha” bilan ishlashga o`tadilar. Dastlab klaviaturada biron-bir harfni, masalan, “A” harfiga mos tugmachani bosib, uni kompyuter ekranida hosil qilish bo`yicha mashq bajaradilar va ekrandagi harflarni printerdan chiqaradilar.

Tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonligini shakllantirilishdan asosiy maqsad ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda kompyuterdan foydalanishga qaratilgani sababli, tarbiyachi o`zining nazorati ostida “Sichqoncha” yordamida turli ta’lim o`yinlarini, matematik amallarni, ekologik topshiriqlarni va shularga o`xshash vazifalarni bajartirishga o`tadi. Tarbiyalanuvchilar “Sichqoncha”dan foydalanish bo`yicha to`la amaliy malaka va ko`nikma hosil qilganlaridan so`ng mustaqil ish bajara boshlaydilar. Bu holda ham tarbiyachi ularning ishini doimiy kuzatib turadi.

MTT tarbiyalanuvchilarida kompyuter savodxonligini shakllantirishning yana bir qulay tomoni shundan iboratki, multimedia texnologiyasidan foydalanish jarayonida tarbiyalanuvchilarning bilimini baholash ham kompyuter xotirasiga kiritilgan test savollari,

rasmlar, o`yinlar, mashqlar, taqdimotlar orqali amalga oshiriladi. Bu holda tarbiyalanuvchilar berilgan savollarga to`g`ri javob topishlari shart. MTTlarida masofali ta'lim texnologiyasidan foydalanish jarayonida ham kompyuterdan foydalanish qo`l keladi. Internetdan foydalanish tarbiyachining bevosita nazorati va ko`rsatmasi asosida o`tkaziladi.

XULOSA. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga talim berishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bolalarni zamon talabiga mos bilim, ko'nikma va malakalar berish, bola ongida kompyuter, sichqoncha, ekran, camera, skaner kabi tushunchalarni paydo qilishdir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. . D.R. Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" Darslik. Barkamol fayz media. 2018 yil – 432 bet.

2. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish metodikasi" T.:Darslik. Shafoat nur fayz. 2020 yil – 431 bet.

3. X.A.Meliyev, O.Jamoliddinova, "Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati" T.: Zarvaraq nashryoti, 2021 yil – 284 bet.

4. F.Qodirova, "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019 yil 419-bet